

"O'zkiyosanoat" AJ brifingi

// 06.08.2024

<https://uzkiyosanoat.uz/oz/press/news/o-zkiyosanoat-aj-brifingi>

Korrupsiyaga qarshi kurash reytingida "O'zkiyosanoat" AJ faoliyati 90 ball bilan yaxshi deb baholandi va 3-o'rinni qayd etdi

Bu haqda AOKAda o'tkazilgan brifingda "O'zkiyosanoat" AJ axborot xizmati rahbari Rustambek Eshbekov ma'lum qildi.

"O'zkiyosanoat" AJ va tarmoq korxonalarida 2023-yilda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida amalga oshirilgan ishlar samaradorligini yagona mezon asosida baholash tizimi joriy etildi. Mazkur baholash tizimiga 5 ta yo'nalishda 29 ta maxsus indikator asosida Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining "E-Anticor.uz" elektron platformasiga sohada amalga oshirilgan ishlar bo'yicha ma'lumotlar kiritildi. Korrupsiyaviy xavf-xatarlar ehtimoli yuqori va o'rta bo'lgan 7906 nafar xodim manfaatlar to'qnashuvi mavjudligi yoki mavjud emasligi to'g'risidagi deklaratsiyalar to'ldirdi.

Deklaratsiyalar tahlil qilinganda, 32 nafar mas'ul xodimda real manfaatlar to'qnashuvi, 68 nafarida ehtimoliy (potensial) holat mavjudligi aniqlandi. Ushbu chora-tadbirlar natijasida jami 5,9 mlrd.so'mlik pul mablag'larining asossiz sarflanishi oldi olinib, iqtisod qilingan.